



Explanation of the theme of "E'rab" in the work "Al-Mufasssal" by Zamakhshari

Nuriddinjon TURGUNBOEV¹

Tashkent State University of Oriental Studies

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

10 January 2025

Accepted 25 January 2025

Available online

25 February 2025

Keywords:

flexion,
e'rab,
nahw,
science,
research,
work,
grammar,
explanation,
annotation,
governing element,
inflected languages,
grammatical form,
diacritical marks,
explicit,
implicit,
synthetic affix,
internal flexion,
external flexion.

ABSTRACT

In his work al-Mufasssal, Abul Qasim Mahmud ibn Umar al-Zamakhshari, one of the most prominent scholars of the East who taught the Arabic language to the Arabs, provides a definition that is brief yet highly significant in terms of its types and the linguistic insights it conveys.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss2/S-pp261-266>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Zamaxshariyning "Al-Mufasssal" asarida "E'rob" mavzusining yoritilishi

АННОТАЦИЯ

Kalit so'zlar:

Ushbu maqolada Sharq
allomalarning eng ko'zga
ko'ringan

Ushbu maqolada Sharq allomalarning eng ko'zga ko'ringan
namoyondalaridan, vatandoshimiz, arablarga arab tilini
o'rgatgan Abul Qosim Muahmud ibn Umar Zamaxshariyning "al-

¹ Independent Researcher, Tashkent State University of Oriental Studies. E-mail: mnuriddin163@gmail.com

namoyondalaridan,
vatandoshimiz,
arablarga arab tilini
o'rgatgan Abul Qosim
Muahmud ibn Umar
Zamaxshariyning
"al-Mufasssal" asarlarida
e'robga berilgan ta'rif,
uning turlari va ifodalanishi
borasida muxtasar lekin
keng ahamiyatli malumotlar
berilgan.

Mufasssal" asarlarida e'robga berilgan ta'rif, uning turlari va ifodalanishi borasida muxtasar lekin keng ahamiyatli malumotlar berilgan.

Объяснение темы «Эраб» в произведении Замахшари «Аль-Муфасссаль»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

флексия,
идиома,
грамматика,
наука,
исследование,
труд,
грамматика,
комментарий,
маржа,
фактор,
флексивные языки,
грамматическая форма,
действие,
кажущееся,
судьбоносное,
синтетический аффикс,
внутренняя флексия,
внешняя флексия.

В данной статье приводится краткое, но весьма значимое определение, представленное в труде «Аль-Муфасссаль» Абул Касима Муахмуда ибн Умара Замахшари – одного из виднейших учёных Востока, обучавшего арабов арабскому языку с точки зрения его типов и информационного содержания.

Til inson bilan birga uzluksiz rivojlanib kelayotgan ijtimoiy hodisadir. Har bir tilning o'ziga xos xususiyati bo'ladi. Tipologik jihatdan som tillar guruhiga mansub arab tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu e'rob (fleksiya) masalasidir.

Fleksiya so'zi lotincha "flexio" so'zidan olingan bo'lib "egilish, bukilish" degan ma'nolarni anglatadi. Ya'ni fleksiya so'z o'zgarishida namoyon bo'ladigan grammatik kategoriyalar majmui ko'rsatgichidir.

"Fleksiya – so'zning turlanishidagi va tuslanishidagi o'zgaradigan qo'shimchasi. Yangi so'z va grammatik shakllar yasashda o'zakdagi tovushlarning o'zgarishi".

O'zbek, rus va arab tillarida turlanish va tuslanish hodisasi mavjud. Turlanish hodisasi o'zbek va rus tillarida ot so'z turkumida yuz bersa, tuslanish fe'l so'z turkumiga xos hodisadir. Tilshunoslikda "fleksiya" nomi bilan ifodalanadigan turlanish va tuslanishga arab tili grammatikasida alohida grammatik hodisalar sifatida qaralmaydi, balki ular "e'rob" deb nomlanib, u ism va fe'lda namoyon bo'ladi.

Fleksiya hodisasida qo'shimcha qo'shish yoki o'zakdagi ba'zi tovushlarning o'rin almashishi natijasida so'zlar dastlabki shaklini yoqotadi, yoki o'zgaradi. Tildagi fleksiya so'zning zamon, hol, ovoz, jihat, shaxs, son, jins va kayfiyat kabi turli grammatik

kategoriyalarni ifodalash uchun shaklini o'zgartirish jarayonini anglatadi. Fleksiyaning bir-biridan farqlanadigan ikki xil turi mavjud bo'lib, ular ichki va tashqi fleksiyaadir. Ichki fleksiya so'z o'zgarishining shunday usuliki unda so'z shakllari asos tarkibidagi tovushlarning (asosan unli tovushlarning) o'zgarishi yoki o'rin almashishi orqali hosil qilinadi. Masalan, arab tilidagi درس – darosa (u dars qildi) so'z shakli "drs" o'zagiga hamda grammatik ma'no ifodolovchi "aaa" (harf bo'lmagan, unlilarni ifodalaydigan diakritik belgi) unlilariga ajraladi. Shunda tarkibdagi unlilarni o'zgartirganimizda دارس – daaris (o'quvchi); مدرّس – madruus (o'rganilgan narsa) kabi so'zlar hosil bo'ladi. Demak, ichki fleksiya nafaqat grammatik shakllarning hosil bo'lishiga, balki yangi so'z yasashiga ham xizmat qiladi. Tashqi fleksiya esa sintetik affikslardan foydalanuvchi so'z o'zgarishidir. Bunga misol qilib rus tilidagi поле-pole, polya, poley so'zlarini misol keltirish mumkin.

"Arab tilidagi ba'zi so'zlar tashqi affiksatsiya natijasida hosil bo'ladi. Tashqi fleksiya ichki ot yasash suffikslarining chegaralanganligi xosdir. Bu "يَّ" va "يِّ", uning yana bir turi "اِيَّ" bo'lib, nisbiy sifat yasovchi suffiks hisoblanadi".

Arab tilida fleksiya – e'rob deganda so'zning oxirgi bo'g'in unlisining o'zgarishi tushuniladi. Ismlardagi bu o'zgarish uning kelishigini, fe'llardagi o'zgarish uning zamon va maylini ifodalaydi.

Butun dunyo e'tirof etadigan o'rta asrlarning eng mashhur nahvshunos, mufasssir olimi Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) o'zining المفصل في صناعة الإعراب – "al-Mufasssal fi sona'til e'rob" asarida e'rob xususiyatiga ega so'zga shunday ta'rif beradi:

"والاسم المعرب ما اختلف آخره باختلاف العوامل لفظا بحركة أو بحرف، أو محلاً".

Ya'ni: "Murob ism – unga ta'sir qiluvchi omillar o'zgarishi bilan oxiri harakat yoki harf orqali lafziy o'zgaradigan, yoki mahallan o'zgaradigan kalima".

E'robni yaxshiroq tushunish uchun unga boshqa kitoblarda berilgan ta'rifni ham keltiramiz. Xususan, – "التحفة السنية بشرح المقدمة الأجرومية" – "at-Tuhfatus saniyya bisharhil muqodimmatil ajrumiyya" kitobida muallif shunday deydi:

الإعراب له معنيان: أحدهما لغوي، والآخر اصطلاح. أما معناه في اللغة: فهو الإظهار والإبانة، تقول: (أعربت عما في نفسي)، إذا أبنته وأظهرته. وأما معناه في الاصطلاح: فهو ما ذكره المؤلف بقوله: تغيير أواخر الكلم لاختلاف العوامل الداخلة عليها لفظاً أو تقديراً".

Ya'ni: "E'robning ikkita ma'nosi bor: bittasi lug'aviy, ikkinchisi istilohiy. Lug'aviy ma'nosi bu izhor qilish va bayon qilishdir. Masalan: Ichimdagi narsani bayon qildim, deysiz agar uni oshkor qilsangiz. Istilohiy ma'nosi esa muallif ("ibn Aajurruum" nomi bilan mashhur abu Abdulloh Muhammad ibn Muhammad ibn Dovud Sinhojiy Mag'ribiy) zikr qilganidek: unga kirgan omillarning o'zgarishi tufayli kalimaning oxiri lafziy yoki taqdiriyy suratda o'zgarishi e'rob deyiladi".

Shayx Mustafo G'olayiniy ham o'zining "جامع الدروس العربية" kitobida e'rob va murob ismga shunday ta'rif beradi:

فالإعراب أثر يحدثه العامل في آخر الكلمة، فيكون آخرها مرفوعاً أو منصوباً أو مجروراً أو مجزوماً على حسب ما يقتضيه ذلك العامل".

Ya'ni: "E'rob bu omil paydo qilgan so'zning oxiridagi asar – izdir. Kalimalarning oxiri o'sha omil taqozosiga ko'ra raflangan, nasblangan, jarlangan yoki jazmlangan bo'ladi".

Demak, murob o'zidan oldin o'tgan omil o'zgarishi sababli oxiri o'zgaradigan so'zdir. Masalan: يكتب، الرجل، الأرض، السماء kabi. Muroblar tavid va muannaslik nuni qo'shilmagan muzore fe'li va ba'zilaridan tashqari barcha ismlar. E'rob raf (ismlarda bosh kelishik, fe'llarda xabar mayli), nasb (ismlarda tushum kelishigi, fe'llarda istak mayli), jar (faqat ismda bo'lib qaratqich kelishigi) va jzm (faqat fe'lda bo'lib shart maylini ifodalaydi) kabi to'rt xildir.

Murob ismning oxiri raf, nasb va jar bo'ladi:

– raf: Ilm manfaatlidir. – العلم نافع.

– nasb: Ilmni manfaatli deb bildim. – رأيت العلم نافعا.

– jar: Foydali ilm bilan shug'ullandim. – اشتغلت بالعلم النافع.

Ushbu masala borasida Boqi Zokirovich Xolidov ham o'zining “Учебник арабского языка” kitobida shunday keltiradi: “Склонение имён. В арабском языке есть три падежа: именительный, родительный и винительный. Основная масса имён склоняется по этим трём падежам. Однако некоторые имена склоняются лишь по двум падежам, так как у них форма винительного падежа совпадает с формой родительного падежа”.

Ya'ni arab tilida uchta kelishik bor: bosh kelishik, qaratqich va tushum kelishigi. Ism, asosan, ushbu uchta kelishiklar bilan ifodalanadi.

Holat	Kelishik	Erkak	Ayol	Qo'shimcha
Noaniq	Bosh	طَالِبٌ	طَالِبَةٌ	- un
	Qaratqich	طَالِبٍ	طَالِبَةٍ	- in
	Tushum	طَالِبًا	طَالِبَةً	- an
Aniq	Bosh	الطَالِبُ	الطَالِبَةُ	-u
	Qaratqich	الطَالِبِ	الطَالِبَةِ	-i
	Tushum	الطَالِبِ	الطَالِبَةِ	-a

Lekin bazi ismlar ikkita kelishikda kelishi ham mumkin. Unda tushum kelishigi qaratqich kelishigi bilan bir hil bo'ladi.

Ikkilikda ismlarning birlikdagi ismlardan farqi, ular ikkita kelishilda tuslanadi, ya'ni, bosh va qaratqich-tushum kelishiklari.

	Noaniq		Aniq		Qo'shimcha
Kelishik	Erkak	Ayol	Erkak	Ayol	
Bosh	طَالِبَانِ	طَالِبَتَانِ	الطَالِبَانِ	الطَالِبَتَانِ	- an aani
Qar. / Tush.	طَالِبَيْنِ	طَالِبَتَيْنِ	الطَالِبَيْنِ	الطَالِبَتَيْنِ	- ayni

Shuningdek, ismlar to'g'ri ko'plikda ham ikki kelishikda tuslanadi.

Jins	Kelishik	Noaniq	Aniq	Qo'shimcha
Erkak	Bosh	فُلَاَحُونَ	أَفْلَاَحُونَ	- uuna
	Qar. / Tush.	فُلَاَحِينَ	أَفْلَاَحِينَ	- iina
Ayol	Bosh	فُلَاَحَاتُ	أَفْلَاَحَاتُ	- aatun - aatu
	Qar. / Tush.	فُلَاَحَاتِ	أَفْلَاَحَاتِ	- aatin - aati

Bosh kelishikda ega, ismiy kesimlar keladi.

Ism ikkita holatda qaratqich kelishigida keladi:

a) old ko'makchidan keyin: فِي الْعُرْفَةِ إِلَى الْمَصْنَعِ

b) izofa birikmasida: بَابُ الْعُرْفَةِ

E'robning gapning tarkibiy qismlari uchun belgi ekani borasida o'zbek arabshunoslarimizdan Baxtiyor Ibrohimov ham shunday ta'kidlaydi: “Arab tilida ega, kesim va ularning moshlashgan aniqlovchilari bosh kelishik (raf)da tursa, vositasiz to'ldiruvchi va bir qator hol, son, otlar tushum kelishigi (nasb)da turadi. Barcha old qo'shimcha va old ko'makchilardan keyin esa qaratqich kelishigi (jar)da ishlatiladi”.

Murob fe'lining esa oxiri raf, nasb va jazm bo'ladi:

- raf: U yozyapti. – يكتُب.
- nasb: U yozmaydi. – لن يكتُب.
- jazm: U yozmadi. – لم يكتُب.

Ushbu misollarda ko'rinib turganidek, e'rob ism va muzore fe'lining oxiridagi zamma, fatha, kasra harakatlari va sukun bilan ifodalanadigan grammatik hodisa. Ammo bu narsa e'robning doimo harakatlar bilan ifodalanishini anglatmaydi.

Zamaxshariy "al-Mufassal" asarining qisqartmasi bo'lgan "Al-Unmuzaj fin nahv" asarida yana shunday deydi:

"الإعراب هو إختلاف آخر الكلمة بإختلاف العوامل. إختلاف الآخر إما بالحركات وإما بالحروف".

"Omillar o'zgarishi sababli so'zlarning oxirida yuz beradigan o'zgarish "e'rob"

deyladi. So'z oxiridagi o'zgarish yo harakatlar bilan, yoki harflar bilan namoyon bo'ladi".

Demak, omil sababli yuzaga kelgan o'zgarishning alomati doim ham harakat bilan emas, balki ba'zi hollarda harflar bilan ham ifoda etilar ekan. Masalan, "asmoi xomsa" (besh xil ism), yoki "asmoi sitta" (olti xil ism) deb ataladigan ismlar izofa qilingan holatta ularning e'robi harakatlar bilan emas, balki harflar bilan ifoda etiladi. Faqat bunda bitta istisno bor, ya'ni bu ismlar mutakallim yasi (mening)ga izofa qilinmasligi lozim:

- raf: Uning otasi mening oldinga keldi. – جاءني أبوه.
- nasb: Uning otasini ko'rdim. – رأيت أباه.
- jar: Uning otasi yonidan o'tdim. – مررت بأبيه.

Shuningdek, muzore fe'lining ham "afa'lu xomsa" (beshta fe'l) deb ataladigan oxiri ko'plik muzakkar, ikkilik va birlik muannas nunlariga tugaydigan ko'rinishlarida e'rob nunning bor yoki yo'qligi bilan ifoda etiladi:

- raf: Ular yozyapti. – يكتبون.
- nasb: Ular yozmaydi. – لن يكتبوا.
- jazm: Ular yozmadi. – لم يكتبوا.

Hamda, illat harf bilan tugagan muzore fe'lining e'robi illat harfni tushirib yuborish yoki tushirib yubormasdan ustiga harakatni taqdir qilish bilan ham ifoda etiladi.

Demak, e'robning uch xil turi bor:

a) lafziy e'rob: omil taqozosiga ko'ra so'z oxirida paydo bo'lgan o'zgarish bo'lib, u oxiri illat harfli bo'lmagan murob so'zlarda yuzaga keladi.

b) taqdiriy e'rob: omil taqozo etadigan, ammo so'z oxirida zohir bo'lmaydigan e'rob. Unda e'robni ifodalovchi harakat talaffuz qilinmagani sababli taqdiriy (faraziy) bo'ladi.

d) omil sababli e'tibor jihatidan bo'ladigan o'zgarish. U zohir ham, taqdiriy ham bo'lmaydi.

Bundan tashqari, murob bo'lmagan so'zlar esa arab tilida mabniy deyiladi. Mabning bu har qanday grammatik shakl va vazifada kelishidan qat'iy nazar oxiri bir xil ko'rinishda qolaveradigan kalimalardir.

Morfologiyada, asosan, fleksiyadan foydalanuvchi tillar flektiv tillar deyiladi. Flektiv tillar tushunchasi 1809-yilda nemis olimi F.Shlegel tomonidan fanga kiritilgan. Flektiv tillarga asosan hind-yevropa (rus, nemis, lotin, hindu...) va som (arab, ivrit...) tillari kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Баки Закирович Халидов. Учебник арабского языка. Для высших учебных заведений. Третье издание. –Т.: “Ўқитувчи”, 1981.
2. Ковалев А.А., Шарбатов Г.Ш. Учебник арабского языка. – Москва.: “Восточная литература” РАН, 1998 г.
3. Nosirova M. O'rta asrlar arab nahvidan na'munalar (Mahmud Zamaxshariyning “Unmuzaj fi nahv” risolasi asosida). – Т.: TOSHDSHI nashriyoti, 2004.
4. Hasanov M. Atab tili darslari. – Т.: Movarounnahr, 2004.
5. A. Abdujabborov. Arab tili. – Т.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007.
6. Qodirov T. Sh, Aliyev D.I. Arab tili leksikologiyasi. – Т.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010.
7. Бахтиёр Иброҳимов. Араб тили. – Т.: “Университет” нашриёти. 1991.
8. الدكتور فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية. دراسة وتحقيق. – عمان، الأردن. دار عمار للنشر والتوزيع. 1425 هـ / 2004 م.
9. الأنموذج في النحو. تصنيف أبي القاسم محمود ابن عمر الزمخشري. اعتنى به سامي بن حمد المنصور. – عمان؛ دار عمر للنشر والتوزيع. 1999.
10. المفصل في علم العربية. تصنيف أبي القاسم محمود ابن عمر الزمخشري. دراسة وتحقيق الدكتور فخر صالح قدارة. – عمان؛ دار عمر للنشر والتوزيع. 2003.
11. التحفة السنية بشرح المقدمة الأجرومية في قواعد النحو والإعراب. تحقيق وتعليق أبي سعيد مختار بن سعيد الحضرمي. دار الحديث بالحامي. 2023.
12. جامع الدروس العربية مذيلا ببحثي البلاغة والعروض. تأليف الشيخ مصطفى الغلاييني. تحقيق علي سليمان شبارة. – دمشق؛ سوريا. مؤسسة الرسالة ناشرون. 2020.
13. <https://ziyouz.com>
14. <https://moturidiy.uz>
15. <https://izoh.uz>
16. Wikipedia